

SINXRON TARJIMADA TEMA VA REMA

Rasulov Zubaydullo Izomovich

Doctor of science the head of the department English linguistics in Bukhara
State Universit

Qodirova Aziza Xayrilloyevna

2nd year master student of Bukhara State University

a.x.qodirova@buxdu.uz

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada sinxron tarjima jarayonida duch kelinadigan gapning aktual bo`laklari gap ifoda asosi (tema) va ifoda yadrolari (rema) haqida kerakli ma`lumotlar keltirilgan. Bu ma`lumotlar tarjimon uchun ma`lum bir qiyinchiliklarni yengib o`tishda yordam beradi.

KALIT SO`ZLAR: Aktual bo`lak, sinxron tarjima, tema, rema, subyekt, predikat, kommunikatsiya, diskurs.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлены необходимые сведения о действительных частях предложения, основе выражения предложения (теме) и ядре выражения (реме), которые встречаются в процессе синхронного перевода. Эта информация помогает переводчику преодолевать определенные трудности.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Актуальная часть, синхронный перевод, тема, рема, подлежащее, сказуемое, сообщение, дискурс.

ABSTRACT: This article provides the necessary information about the actual parts of the sentence, the basis of the expression of the sentence (topic) and the core of the expression (reme), which are encountered in the process of simultaneous translation. This information helps the translator to overcome certain difficulties.

KEY WORDS: Actual part, simultaneous translation, theme, rheme, subject, predicate, communication, discourse.

KIRISH.

Sinxron tarjimon tarjima jarayonida alohida jumla bilan chegaralanganda matn

mazmunining tor bo'lishi va "anglash"ning imkoniyatlarini ko'rib chiqqanda, bu chegaralar sinxronist uchun ma'lum bir qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Sinxron tarjima jarayonining me'yoriy kechish sharti aslyat tilida alohida fikr – jumalarning emas, balki yirikroq tuzilmalar, ya'ni matn yoki diskurs (aloqachi xabar)ning mavjudligi hisoblanadi. So'nggi yillarda tilshunoslarning ko'p qismi matn, diskurs masalasiga e'tibor qaratmoqda. Jadal rivojlanishni matn tilshunosligi deb nom olgan tilshunoslikning bo'limi o'z boshidan kechirmoqda. Matnga til va nutqning kommunikativ mohiyati masalasiga qiziquvchi olimlar murojaat qilmoqdalar va tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tema va rema tushunchasi gapning kommunikativ strukturasi tahlili jarayonida tilshunoslikka kiritildi. Tema va rema tushunchalari va hodisalarini tushunish va sharxlash masalalari bo'yicha tilshunoslar o'rtasida olib borilayotgan baxsli munozaralarda, kommunikativ sintaksis bo'yicha barcha ishlarda aslida bitta va o'sh hodisa haqida gap ketadi: kommunikatsiyaning boshlang'ich nuqtasi, ya'ni "eski", "ma'lum bo'lgan xabar" – tema hamda xabar nima uchun qilinyapti, "yangi", "yangi ma'lumot", "kommunikativ yukning cho'qqisi" – rema haqida. Shunday qilib, tema va rema – bu xabarning boshlang'ich nuqtasidan asosiy xabarlanmish, ya'ni xabar nima uchun qilinayotganlik mazmuniga kommunikatsiya harakatlari jarayonining statik ifodasidir.¹

Tema va rema tushunchalariga murojaat qiluvchi ko'pgina tadqiqotchilarga xos bo'lgan ikkinchi umumiy xususiyat tema va rema roliga alohida leksema va gap bo'laklaridan tarkib topuvchi leksema guruhlarining berilishi hisoblanadi. Bunda tema va remani ajratib ko'rsatish uchun asosiy argument kommunikativ, ma'noli strukturaning gapning sintaktik strukturasi mos kelmasligi bo'ladi. Aktual bo'laklar gap ifoda asosi va ifoda yadrolaridan iborat bo'ladi. Gapda ifodalangan fikrning ma'lum qismi, ya'ni ifoda asosi tema (ma'lum demakdir) va noma'lum qismi, ya'ni ifoda yadrosi rema (yangilik demakdir) deb ham yuritiladi. Gapning rema qismi

¹ "Sinxron tarjima masalalari" ma'ruza matni. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2013.
WWW.HUMOSCIENCE.COM

kommunikativ (axborot yetkazish) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo`ladi. Savol har doim remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma`lum bo`lganligi sababli u so`roq gap tarkibida aynan takrorlanadi. Boshqa so`z bilan aytganda, tema va rema shu holda ajratib ko`rsatiladiki.

Tema va rema ta`rifi va subyekt va predikati ta`rifining o`xshashligiga antik faylasuf va filologlarning bildirgan fikr-mulohazalariga nisbatan S.D.Katsnel'son shunday deydi: "...neytral, shakli o'zgacha unsurlar tomonidan o'zgartirilmagan mulohazalarda subyekt bu tema demakdir. Modomiki baribir bu tushunchani farqlashga to`gri kelsa, bu faqat ayrim hollarda sub'yekt shakli yoki butunlay "detematizatsiyalashadi", yoki bo'lmasa ikkinchi darajali tema mazmunini oladi. Temaning asosiy funksiyasini esa subyekt shakliga kirmagan so`z bajaradi". Bu haqda U.Cheyf ham shunday yozadi: "Ma`lum bir chegaralangan darajada o'sha farq o'z aksini subyekt va predikat atamalarida topadi. Bu ikki atama semantik strukturalar bilan emas, balki aniq bir yuzaki strukturalar bilan bog`langan. Lekin semantik strukturadagi eski ma`lumot va yuzaki strukturadagi subyekt o`rtasida aniq bog`liqlik mavjud. Aqalli, ingliz tili kabi tillarda..."² Agar gapning tema va remasi tushunchalari kommunikativ sintaksis yoki jumla-fikrning gap bo`laklariga bo`linishi nazariyasida o`ziga xos atama bo`lsa, matnning temasi tushunchasi nafaqat tilshunoslikda, balki har qanday boshqa ilmiy sohalar va shunchaki kundalik hayotda ham keng qo`llaniladi. Xabarni taxlil qila turib biz ham tema haqida gapiramiz.

NATIJALAR.

Rema esa boshqa masala. Gap matn, butun bir xabar, haqida borganida, tema va rema alohida fikr-jumladan farqli o`laroq sifat jihatdan teng ma`noli bo`lmay qoladi. Tema – bu ma`lumot, xabarning boshlang`ich pallasi, kommunikatsiyaning jo`nash nuqtasi, bu xabar berilmishdir, va xabar tugallanmagunicha, tema saqlanadi. Uning verbal ifodasining semantic mazmuni zaruriyatga ko`ra iterativ, matnda takrorlanuvchidir. Aslini olganda matnning tematik tarkibiy qismi asosiy butun

^{2 2} "Sinxron tarjima masalalari" ma`ruza matni. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2013
WWW.HUMOSCIENCE.COM

xabarning “skeleti” hisoblanadi. Fikr (jumla)ning remasi esa, aksincha matnda, butun xabarda yagona, qaytarilmasdir. Har bir keluvchi fikrj umlada ilgarigi rema ravshan va yashirin tematik komponentning qismiga aylanadi, fikrning tarkibida boʻlgan tematik komponentga kiradi.

MUHOKAMA.

Gapning aktual boʻlinishini rus, ingliz, nemis, fransuz kabi tillarda ham kuzatish mumkin. Odatda, bu tillarda tema-rematik boʻlinish gapning formal boʻlinishi bilan mos kelmaydi. Masalan:

rus tilida	
Tema	Rema
Smex	pobejdaet grust.
Grust	pobejdaet smex.
Moyo lyubimoe derevo –	beryoza.
Beryoza –	moyo lyubimoe derevo.
Poezd	podxodit k vokzalu.
K vokzalu	podxodit poezd.

Keltirilgan misollarda, jumladan, birinchi gapda tema boʻlib kelgan smex soʻzi imenetelny padej koʻrinishida, rema – grust soʻzi esa vinitelny padej shaklini olgan. Axborot maqsadi deyarli oʻzgarmagan Grust pobejdaet smex gapida esa, tema (grust) imenitelny padej, rema (smex) vinitelny padej shakliga ega boʻlgan va hokazo. Yoki ingliz tilida:

The ball hit the boy (Koptok bolani yiqitdi) - The ball (tema) – hit the boy (rema).

The boy hit the ball (Bola koptokni yiqitdi (qoʻlidan tushurdi degan maʼnoda) – The boy (tema) – hit the ball (rema).

Nemis tilida: Die Frau sah das Madchen (Ayol kishi qizni koʻrdi) – Das Madchen sah. Qiyoslangan gaplarda tema-rematik boʻlinish shakliy boʻlinishga mos kelmaganligini koʻrish mumkin.

Tema	Rema
Die Frau	sah das Madchen

Das Madchen

sah die Frau

XULOSA.

Xullas, tema tushunchasi ostida “bir qancha jumlar bilan ifodalangan” fikrning predmeti (subyekti) tushuniladi. Rema tushunchasi ostida yuzaki daraja jumlasining sintaktik predikati bilan mos kelishi mumkin bo’lgan, mos kelmasligi ham mumkin bo’lgan ichkarilikdagi predikati tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Chernov, G.V. (1975). Communicational situation of simultaneous interpretation and redundancy in a message (In Russian) Tetradi Perevodchika, 12, 83-101.
2. Haydarov, Anvar Askarovich and Navruzova, Nigina Hamidovna (2021) "STYLISTIC FEATURES OF INTONATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 1 , Article 2.DOI: 10.52297/2181 1466/2021/5/1/2
3. Kadirova A.Kh. “ Qualificattion and skills required of a simultaneous interpreter” Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№2/4 (98), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 207 б
4. Расулов, З. И. (2011). Синтаксический эллипсис как проявление экономии языка): авторефератдисс.. кандидата филологических наук/ Расулов Зубайдулло Изомович.-Самарканд, 2011.-27 с.
5. “Sinxron tarjima masalalari” ma`ruza matni. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2013